

Sanoat xavfsizligini deklaratsiyasi.

Reja

- 1.Xavfsizligi deklaratsiyalanishi kerak bo'lgan xavfli ishlab chiqarish obyektlari
- 2.Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish
- 3.sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini qayta ko'rib chiqish

- **Xavfsizligi deklaratsiyalanishi kerak boʻlgan xavfli ishlab chiqarish obyektlari**
-
- Qonun hujjatlariga muvofiq xavfli ishlab chiqarish obyektlarining birinchi tipiga muvofiq boʻlgan loyihalananayotgan va faoliyat koʻrsatayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektlari sanoat xavfsizligini majburiy deklaratsiyalashga tegishli boʻladi.
- Boshqa xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligini deklaratsiyalash ixtiyoriy asosda amalga oshiriladi.

- Majburiy deklaratsiyalanishi kerak boʻlgan xavfli ishlab chiqarish obyektlarini identifikatsiya qilish xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanuvchi tashkilot, shuningdek sanoat xavfsizligi ekspertizasini oʻtkazish yuzasidan akkreditatsiyaga ega boʻlgan ekspert tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.
- Majburiy deklaratsiyalanishi kerak boʻlgan xavfli ishlab chiqarish obyekti identifikatsiya qilingan taqdirda tashkilot rahbari ushbu obyekt toʻgʻrisidagi maʼlumotlarni favqulodda vaziyatlar boʻyicha tegishli hududiy boshqarmaga va "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasining mintaqaviy organlariga, yuqori tashkilotga, vazirlik yoki idoraga (mavjud boʻlganda) hamda xavfli ishlab chiqarish obyekti joylashgan hududdagi mahalliy davlat hokimiyati organiga taqdim etadi. Maʼlumotlar ushbu Nizomga 1-ilovada keltirilgan shakl boʻyicha rasmiylashtiriladi.

- Favqulodda vaziyatlar boʻyicha hududiy boshqarmalar va "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasining mintaqaviy organlari har yili oʻzlarining markaziy apparatlariga, xavfsizligi majburiy deklaratsiyalanadigan xavfli ishlab chiqarish obyektlari roʻyxatiga kiritish uchun umumlashtirilgan axborot taqdim etadilar.
- Oʻzbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi va "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiyasi oʻzlarining boʻlinmalari tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlarni hisobga olgan holda xavfsizligi majburiy deklaratsiyalanadigan xavfli ishlab chiqarish obyektlari roʻyxatini shakllantiradilar va Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadilar.

- **Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini ishlab chiqish**
- Faoliyat ko'rsatayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi ushbu obyektidan foydalanayotgan tashkilot tomonidan mustaqil ravishda yoki xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligini ekspertizadan o'tkazish yuzasidan akkreditatsiyaga ega bo'lgan tashkilot bilan tuzilgan shartnoma asosida ishlab chiqiladi.
- Loyihalashtirilayotgan xavfli ishlab chiqarish obyektining sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi xavfli ishlab chiqarish obyektini qurish, kengaytirish, rekonstruktsiya qilish, texnik jihatdan qayta jihozlash, konservatsiya qilish va tugatish yuzasidan loyiha hujjatlari tarkibida ishlab chiqiladi.

- Tashkilot tarkibida majburiy deklaratsiyalanishi kerak boʻlgan bir nechta xavfli ishlab chiqarish obyektlari mavjud boʻlgan taqdirda xavfli ishlab chiqarish obyektlarining sanoat xavfsizligi yagona deklaratsiyasini ishlab chiqishga va rasmiylashtirishga yoʻl qoʻyiladi.
- Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanish bilan bogʻliq faoliyat uchun litsenziya olish yuzasidan murojaat qilinganda, sanoat xavfsizligi deklaratsiyasidagi mavjud maʼlumotlar oʻzgartirilganda yoki sanoat xavfsizligi talablari oʻzgartirilgan taqdirda aniqlashtiriladi yoki yangidan ishlab chiqiladi.

- Faoliyat ko'rsatayotgan obyekt uchun deklaratsiyani ishlab chiqishda sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlash bo'yicha ma'lumotlar tarkibiga ham bajarilgan, ham rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi axborot kiritiladi. Deklaratsiyani ishlab chiqishda loyiha hujjatlari tarkibida rejalashtirilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlar taqdim etiladi.
- Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi tuzilishiga qo'yiladigan talablar ushbu Nizomga 2-ilovada keltirilgan.
- Loyihalashtirilayotgan xavfli ishlab chiqarish obyekti uchun sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi loyiha buyurtmachisi tomonidan tasdiqlanadi.
- Faoliyat ko'rsatayotgan xavfli ishlab chiqarish obyekti deklaratsiyasi ushbu obyektidan foydalanayotgan tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

- Xavfli ishlab chiqarish obyektidan foydalanayotgan tashkilot rahbari:
- a) sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini favqulodda vaziyatlar bo'yicha tegishli hududiy boshqarmaga, "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiya sining mintaqaviy organiga, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga, "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspeksiya sigiga va deklaratsiya qilinayotgan xavfli ishlab chiqarish obyekti joylashgan hududdagi mahalliy davlat hokimiyati organiga taqdim etadi. Deklaratsiya juzlab taxlangan holda va ekspert xulosalari bilan birga taqdim etiladi;
- b) rasmiy vakillarning deklaratsiyadan foydalana olishini ta'minlaydi.

- **3.Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasini qayta ko'rib chiqish**
- Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi:
- 1) sanoat xavfsizligini, avariyalarni lokalizatsiya qilish va avariya oqibatlarini bartaraf etishni ta`minlashga ta`sir ko'rsatadigan sharoitlar o'zgarganda kechi bilan 1 yil muddatda;
- 2) sanoat xavfsizligi, avariyalarni lokalizatsiya qilish va ularning oqibatlarini bartaraf etish sohasidagi amalda bo'lgan talablar (qoidalar va me`yorlar) o'zgarganda kechi bilan 1 yil muddatda;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi, "Sanoatgeokontexnazorat" davlat inspektsiyasining qo'shma qarori qabul qilinganda ushbu qarorlarda nazarda tutilgan muddatlarda qayta ko'rib chiqilishi kerak.
- Sanoat xavfsizligi deklaratsiyasi 5 yilda kamida bir marta qayta ko'rib chiqilishi kerak.